

**SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH MASALASINING
VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI**

Abdug'ofurov Baxriddin Abdug'ani o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti tyutori

+998944482203

abdugofurovbaxriddin@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish masalasining vujudga kelish tarixi, rivojlanishi, Amerika Qo'shma Shtatlari va Yevropada Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishga oid hujjatlarning paydo bo'lishi, dunyo bo'ylab tarqalishi masalalari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Daxlsizlik, ma'lumotlar, maxfiylik, AQSH, Yevropa Ittifoqi

Shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligi tushunchasi paydo bo'lishi O'zbekistonda va Yevropa, Amerika davlatlarida turlicha vujudga kelgan. O'zbekistonda ushbu soha nisbatan yangiroq hisoblanadi. Qonunchiligimizda "Shaxsga doir ma'lumotlar" haqidagi normativ-huquqiy hujjatlar yaqin davrga kelib paydo bo'ldi.

Jahon mamlakatlarida shaxsga doir ma'lumotlar himoyasi masalasi dastlab, Yevropa va Aqshda vujudga kelgan. Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish Yevropada umumiy gumanitar tushuncha sifatida dastlab Fransiya inqilobi davrida boshlangan¹. Inqilobchilar birinchi bo'lib ushbu konsepsiyani e'lon qildi, shaxs huquqlarini e'tirof etdi va uning manfaatlarini cheklanmagan davlat manfaatlaridan ustunligini ko'rsatdi. Keyinchalik shaxsiy daxlsizlik huquqi to'g'risida tushuncha shakllandi, uning tarkibiy qismlaridan biri shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish

¹ <https://searchinform.ru/resheniya/biznes-zadachi/zaschita-personalnykh-dannykh/realizaciya-zashchity-personalnyh-dannyh/istoriya-zashchity-personalnyh-dannyh/>



huquqi edi. Shaxsning bu ajralmas huquqi ham davlat, ham uchinchi shaxslarning noqonuniy tajovuzlaridan himoyalangan.

AQSHda shaxsga doir ma'lumotlar. Shaxsga doir ma'lumotlarning konsepsiya sifatida va uni himoya qilish tarixining boshlanishi AQShda XIX asrning oxirida boshlanadi. Aynan o'sha paytda shaxsiy daxlsizlikning huquqiy kategoriyasi va uni huquqiy himoya qilish asoslari shakllangan. Maxfiylik, odatda, shaxsiy hayotning daxlsizligini bildiradi. 1890-yilda ikki amerikalik huquqshunoslar - Samuel Uorren va Lui Brandeys bu tushunchani "yolg'iz qolish huquqi" deb ta'rifladilar. Garvard universitetida 1890-yilda ularning "shaxsiy hayot huquqi" maqolasi nashr etildi². Ular biznesning rivojlanishi va biznes yuritishning yangi usullarining paydo bo'lishi insonning ajralmas huquqlariga hujum qilish imkoniyatini paydo qilishidan ogohlantirdilar. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bu xavf darajasini yanada oshirdi. Deyarli darhol, aniqrog'i XX asrning birinchi yarmida shaxsiy hayotga bo'lgan huquq Amerika yurisprudensiyasida o'z aksini topdi. Bu g'oya Qo'shma Shtatlardan keyin dunyoga juda tez tarqaldi. 1948-yilda shaxsiy daxlsizlik huquqi boshqa asosiy huquq va erkinliklar bilan birgalikda "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"da (12-modda), 1950-yilda esa – "Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi"³da (8-modda) aks etdi.

Nazariy konsepsiya huquqni qo'llash amaliyotida tezda qo'llab-quvvatlandi. Anglo-sakson odat huquqi tizimi asosida qarorlar qabul qiluvchi sudlar faoliyatida XX asrning 60-yillariga kelib Amerika konstitutsiyasiga kiritilgan dastlabki beshta tuzatishning navbatdagisi sifatida shaxsiy daxlsizlik huquqi paydo bo'ldi.

Shaxsiy hayot sohasiga bo'lgan huquqni shakllantirishda Amerika sudlarining faoliyati muhim rol o'ynadi. Shunday qilib, 1965-yilda Grisvold va Konnektikutda AQSH Oliy sudi sudyasi Duglas shaxsiy daxlsizlik huquqini AQSh Konstitutsiyasiga kiritilgan dastlabki beshta tuzatishdan olgan va bu tuzatishlar "maxfiylikning turli jihatlarini himoya qilishini" tan olgan. Bu sud qarorini e'lon qilishda u aytgan juda

² История защиты персональных данных: как появился GDPR
<https://habr.com/ru/company/digitalrightscenter/blog/431582/>

³ Конвенция о защите прав человека и основных свобод (Заключена в г. Риме 04.11.1950)
<https://eulaw.edu.ru/spisok-dokumentov-po-pravu-evropejskogo-soyuza/dokumenty-o-pravah-cheloveka-i-grazhdanina/konventsia-o-zashhite-prav-cheloveka-i-osnovnyh-svobod/>



keng tarqalgan iborasi: “Biz huquqlar Billdan ham eskiroq bo‘lgan shaxsiy hayot huquqi bilan shug‘ullanamiz” juda ham mashxur bo‘ldi.

1948-yilda BMT tomonidan tasdiqlangan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 12-moddasiga asos bo‘lgan Amerikaning shaxsiy daxlsizlik konsepsiyasi, shu jumladan, shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq edi. Ushbu moddada hech kim sudning yoki vakolatli organlarning qonuniy qarorisiz insonning shaxsiy hayoti va yozishmalari siriga tajovuz qila olmasligi belgilab qo‘yilgan. Moddaning matnida shunday deyiladi: “Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomus va sha’niga o‘zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga ega⁴.” Birlashgan Millatlar tashkilotiga a’zo bo‘lgan barcha davlatlar borki, ushbu qoidalarga amal qilishga majbur. Ya’ni, o‘zganing shaxsiy hayotiga aralashish va u haqidagi shaxsiy ma’lumotlarini tarqatish mumkin emas. O‘zga shaxsning sha’niga, qadr-qimmatiga ta’sir qiladigan barcha xabarlar sir saqlanishi zarur va hech qachon oshkor qilinishi mumkin emas. Modda yana bir huquqni mustahkamlaydi. Bu agar yuqoridagi kabi shaxsiy hayotga yoki shaxsiy ma’lumotlarga hujum uyushtiriladigan bo‘lsa qonun orqali himoyalaniş huquqi. Ushbu huquq barcha davlatlarda shaxsga doir ma’lumotlar muhofazasini qonun darajasida mustahkamlash zarur ekanligini belgilaydi.

Yevropa Ittifoqida 1960-70-yillarda shaxsiy kompyuterlar turli xil ma’lumotlar masalalarini, shu jumladan, shaxsga doir ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan maxfiy ma’lumotlarni qayta ishlash uchun foydalanilgandan so‘ng, tadbirkorlik va davlat organlari amaliyotiga faol kirdi, ularning holatini huquqiy tartibga solish masalasi paydo bo‘ldi. Shuningdek, ularni qayta ishlash va telekommunikatsiya kanallari orqali uzatish jarayonlarini tartibga soluvchi umumiy qabul qilingan qoidalarini o‘rnatish haqida o‘ylash kerak edi. Yevropa Ittifoqi va Yevropa Komissiyasi muammoning jiddiyligini tezda angladilar va shaxsga doir

⁴ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948-yil 10-dekabr. <https://constitution.uz/oz/pages/humanRights>



ma'lumotlarni himoya qilish doirasini bevosita tartibga soluvchi o'z ko'rsatmalarini ishlab chiqishga kirishdilar.

1950-yilda Yevropa konventsiyasi⁵ xuddi shunday qoidani "Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish to'g'risida"gi 8-moddada mustahkamlab qo'ydi: "har kim o'zining shaxsiy va oilaviy hayotini, uy-joyini va yozishmalarini sir saqlash va muhofaza qilish huquqiga ega". Ko'p jihatdan ushbu xatti-harakatlar tufayli shaxsiy hayotning "shaxsiy daxlsizligi" huquqi har bir shaxsning ajralmas huquqi sifatida tan olingan. Ushbu 59-moddadan iborat konvensiya hozirgi kunda Yevropa davlatlaridagi inson huquqlari himoyasi bo'yicha muhim hujjat bo'lib xizmat qilmoqda. Yuqorida keltirilgan 8-moddada insonning shaxsiy hayot daxlsizligi himoya qilingan va shu moddaning davomida davlatning maxsus organlari tomonidan qanday xolatlarda uning shaxsga doir ma'lumotlariga ega bo'lish yoki unga ishlov berish huquqi keltirib o'tilgan. Uning ikkinchi qismida aytiladiki: "Davlat organi tomonidan ushbu huquqni amalga oshirishga aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Quyidagi xolatlar bundan mustasno: agar bunday aralashuv qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa va demokratik jamiyatda milliy xavfsizlik va jamoat tartibini, mamlakatning iqtisodiy farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lsa, tartibsizlik yoki jinoyatning oldini olish, jamiyat sog'lig'ini yoki ma'naviyatini himoya qilish yoki boshqalarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun lozim bo'lsa.

Ushbu moddada konvensiyaning nisbatan mukammal va har tomonlama kengroq o'ylab belgilanganini ko'rish mumkin. Chunki, agar shaxsga doir ma'lumotlarning sir saqlanishi jamiyat va davlat xavfsizligiga raxna soladigan bo'lsa, bunday ma'lumotlarni tekshirib ko'rish zarur. Jamiyat va davlat manfaatlari yakka shaxs manfaatlaridan ko'ra ustun turishi butunjahon huquqiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Birinchi muhim hujjat Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan, "Shaxsiy ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan qayta ishlashda jismoniy shaxslarni himoya qilish

⁵ Конвенция о защите прав человека и основных свобод (Заключена в г. Риме 04.11.1950) <https://eulaw.edu.ru/spisok-dokumentov-po-pravu-evropejskogo-soyuza/dokumenty-o-pravah-cheloveka-i-grazhdanina/konventsia-o-zashhite-prav-cheloveka-i-osnovnyh-svobod/>



to'g'risida⁶gi Konvensiya⁶ bo'ldi. Hujjat 1981-yilda qabul qilingan. Ma'lumotlarni himoya qilish Amerika tajribasida shaxsiy daxlsizlik huquqining muhim qismi sifatida belgilangan. Uning himoyasi inson huquqlarini himoya qilishning umumiy yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilishi kerak edi.

Ushbu konvensiyaning 7-moddasi ma'lumotlarni himoya qilishga bag'ishlangan.

Ma'lumotlarni himoya qilish(7-modda)

Avtomatlashtirilgan ma'lumotlar fayllarida saqlanadigan shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun ularni tasodifiy yoki ruqsatsiz yo'q qilish yoki yo'qotish, shuningdek, bunday ma'lumotlarga ruqsatsiz kirish, o'zgartirish yoki tarqatishning oldini olish uchun tegishli xavfsizlik choralari ko'riladi.

Keyingi moddaga ham e'tibor qaratish zarur.

Ma'lumotlar sub'ekti uchun qo'shimcha himoya choralari(8-modda)

Har bir insonga quyidagi imkoniyatlar berilishi kerak:

a) shaxsiy ma'lumotlarning avtomatlashtirilgan fayli mavjudligidan xabardor bo'lish, uning asosiy maqsadlari va fayl boshqaruvchisining nomi va doimiy yashash joyi yoki joylashgan joyidan xabardor bo'lish;

b) o'ziga tegishli shaxsiy ma'lumotlarning avtomatlashtirilgan ma'lumotlar faylida saqlanganligi to'g'risida oqilona vaqt ichida va ortiqcha kechiktirmasdan yoki ortiqcha xarajatlarsiz tasdiqlashni olish va bunday ma'lumotlarni tushunarli shaklda olish...

Ko'rish mumkinki, Yevropada ma'lumotlar saqlanishi bo'yicha bir qancha muhim hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ushbu hujjat ham shunday toifadagi hujjatlardan biri hisoblanadi.

Ammo ushbu hujjat normativ hujjatlarni qabul qilish nuqtai nazaridan ishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydigan, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish jarayonini, apparat vositalarini qayta ishlash usullari va foydalaniladigan texnik vositalargacha to'g'ridan-to'g'ri tartibga solish masalalarini ko'rib chiqadigan ramka

⁶ Конвенция о защите физических лиц при автоматизированной обработке персональных данных (Заключена в г. Страсбурге 28.01.1981) http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_121499/



xarakteriga ega edi. Endi Yevropa jamiyati yanada mukammalroq, shaxsga doir ma'lumotlar muhofazasiga ko'proq ahamiyat berilgan hujjat talab eta boshladi.

Ushbu jamoatchilik so'rovining bir qismi sifatida 1995-yilda birlashgan Yevropa parlamenti va hukumati tomonidan bir vaqtning o'zida ishlab chiqilgan № 95/46EC direktivasi⁷ qabul qilindi. U jismoniy shaxs ma'lumotlarini qayta ishlash va ularning erkin harakatlanishiga, shu jumladan, transchegaraviy harakatiga bag'ishlandi. Ushbu hujjat Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning milliy qonunchiligi tomonidan faol qabul qilingan, ammo, bundan tashqari, kelajakda u ushbu tashkilotga a'zo bo'lmagan boshqa mamlakatlarning qonunlari uchun ham asos bo'ldi. Ishonch bilan aytish mumkinki, Yevropa parlamentlari tomonidan ishlab chiqilgan standartlar butun dunyo tomonidan qabul qilindi, ular shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish masalasini shunday batafsil va aniq tartibga solishni taklif qilishdi. keyinchalik, 2000-yilda "Yevropada Asosiy huquqlar xartiyasi" qabul qilindi. Aynan shu yerda, shaxsga doir ma'lumotlar va ularni himoya qilish huquqi asosiy qadriyat sifatida e'lon qilindi⁸.

Bu Yevropada shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha tartibga solish tizimini shakllantirishning asosiy bosqichlari. Uning shakllanishining so'ngi bosqichi Yevropa Ittifoqining shakllanishi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni tartibga solishga qaratilgan Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning milliy qonunlarini qabul qilishga to'g'ri keldi.

Umumiy tushunchalar va standartlarni tasdiqlovchi fundamental normativ hujjatlar shakllantirilgandan so'ng, nafaqat mamlakatlar, balki ma'muriy-hududiy bo'linishning kichikroq birliklari ham milliy huquqning alohida subektlarining normativ hujjatlarini chiqarish davri boshlandi.

Ushbu tartibga solish sohasidagi xronologiyada birinchi bo'lib, 1970-yilda qabul qilingan Germaniya provinsiyasi – Gessenda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun edi. Aynan, Germaniya

⁷ Директива N 95/46/ЕС Европейского парламента и Совета Европейского Союза "О защите физических лиц при обработке персональных данных и о свободном обращении таких данных" <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/en/TXT/?uri=CELEX%3A31995L0046>

⁸ Лушников А.М. Защита персональных данных работника: сравнительно-правовой комментарий гл.14 Трудового кодекса РФ // Трудовое право. 2009



ma'lumotlar maxfiyligi sohasida asosiy kashfiyotchiga aylanadi: "shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi birinchi milliy qonun⁹ (Bundesdatenschutzgesetz) 1977-yilda Germaniyada paydo bo'lgan. Bungacha dunyoning hech bir joyida bunday narsa bo'lmagan.

So'nggi o'ttiz yil ichida 20 dan ortiq Yevropa mamlakatlarida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan. Ular shaxsiy ma'lumotlar aylanishini huquqiy tartibga solishning haqiqiy usullarini o'rnatdilar. Aytish joizki, bu boradagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni shakllantirish xususiy soha daxlsizlik huquqini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini ishlab chiqish bilan birga mustaqil ravishda davom etdi. Uni qo'llashning birinchi amaliyoti yaratila boshlanganidan so'ng qisqa vaqt ichida Yevropa mamlakatlari va provinsiyalarining yana 20 ga yaqin qonunlari qabul qilindi. Ushbu hujjatlarda fuqaroning shaxsiy huquqlarini himoya qilishning real amaliy mexanizmlari joriy etildi. O'sha paytda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha texnik hujjatlarni ishlab chiqish umumiy tartibga soluvchi konsepsiyalarni ishlab chiqish bilan parallel ravishda, texnologik taraqqiyot tezligini saqlab qolishga harakat qildi.

XX asrning 90-yillarning oxiriga kelib, Internetning asosiy gigant-monopolistlari shakllana boshladi. Bugungi kunda ular Katta beshlik yoki GAFAM (Google, Amazon, Facebook, Apple, Microsoft) deb ataladi. Internetning ommalashuvi butun dunyo bo'ylab shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash zaruratini vujudga keltiradi. Chunki, ijtimoiy tarmoqlardan yoki boshqa saytlardan katta hajmdagi shaxsga doir ma'lumotlarning sizib chiqishi xakerlik hujumlari natijasida ham, inson omili natijasida ham sodir bo'ladi. Bir nechta saytlarning hackerlar hujumi natijasida buzilib, ma'lumotlar sizib chiqqanligi ko'plab ko'ngilsiz holatlarga olib keldi. Barcha o'zgarishlarni hisobga olgan holda, Yevropa Ittifoqi 1995 -yildagi eskirgan direktivani¹⁰ yangilash kerak degan xulosaga keladi. Eski tavsiyadagi asosiy muammo shunda ediki, u Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda

⁹ https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_bdsch/

¹⁰ Директива N 95/46/ЕС Европейского парламента и Совета Европейского Союза "О защите физических лиц при обработке персональных данных и о свободном обращении таких данных" <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/en/TXT/?uri=CELEX%3A31995L0046>



to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilmagan. Yangi reglament to'g'ridan-to'g'ri har bir Yevropa davlatida amal qiladi va butun Ittifoqda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish darajasini oshirish imkonini beradi. Yangi qonunni qabul qilish bo'yicha muhokamalar 2012-yilda boshlangan va 2016-yilda reglamentning yakuniy matni rasman e'lon qilingan va 2018-yil 25-maydan kuchga kirgan.

Shuningdek, Covid-19 pandemiyasi davrida dunyo hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi, deyarli barcha insonlar masofadan, online ishlashga majbur bo'lishdi. Bu esa internetda yanada ko'proq shaxsga doir ma'lumotlar oqimi aylanishiga sabab bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda shaxsga doir ma'lumotlar muxofazasi paydo bo'lgan vaqtdan boshlab, zamon talablariga mos ravishda doimiy tarzda yangilanib, murakkablashib bormoqda. Insoniyat turmush tarzidagi globallashuv va rivojlanish barcha sohalar singari shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish masalasini ham dolzarb masalalardan biriga aylantirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **<https://searchinform.ru/resheniya/biznes-zadachi/zaschita-personalnykh-dannykh/realizaciya-zashchity-personalnyh-dannyh/istoriya-zashchity-personalnyh-dannyh/>**
2. История защиты персональных данных: как появился GDPR <https://habr.com/ru/company/digitalrightscenter/blog/431582/>
3. Конвенция о защите прав человека и основных свобод (Заключена в г. Риме 04.11.1950) <https://eulaw.edu.ru/spisok-dokumentov-po-pravu-evropejskogo-soyuza/dokumenty-o-pravah-cheloveka-i-grazhdanina/konventsia-o-zashhite-prav-cheloveka-i-osnovnyh-svobod/>
4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948-yil 10-dekabr. <https://constitution.uz/oz/pages/humanRights>
5. Директива N 95/46/ЕС Европейского парламента и Совета Европейского Союза "О защите физических лиц при обработке персональных данных и о свободном обращении таких данных" <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/en/TXT/?uri=CELEX%3A31995L0046>



6. Лушников А.М. Защита персональных данных работника:
сравнительно-правовой комментарий гл.14 Трудового кодекса РФ
//Трудовое право. 2009